



## МАКТАБГАЧА YOSHDAГИ BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISH VA ATROF MUHITNI MUHOFAZA QILISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

*Toshova Sh. T.*

*Termiz Iqtisodiyot va servis universteti  
"Pedagogika" kafedrasi o'qituvchisi*

**Tayanch so'zlar:** maktabgacha yosh bolalar, ekologiya, atrof-muhit, ko'nikma, tabiat, rivojlan-tirish, muhofaza, ta'lim-tarbiya.

**Ключевые слова:** дошкольники, экология, окружающая среда, навыки, природа, раз-витие, охра-на, образование.

**Key words:** preschool children, ecology, environment, skills, nature, development, protection, educa-tion.

Kirish: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga ta'lim-tarbiya berishda tabiatga va atrof-muhitga ma'suliyat bilan kurashishi xissini tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Bolalar ularning hatti harakatlarini tabiat va atrof sayr vaqtida tabiat bilan birgalikda hayvonlarni asrab avaylab qushlarga donxo'raklar osib qo'yish, qushlarni o'rgatish uchun don sepib qo'yish shu bilan birgalikda daraxtlarga suv quyish, o't-o'lanlarning manzarasini kuzatish bilan birgalikda ma'suliyat bilan kurashish hissi paydo bo'ladi.

Tabiyachining vazifasi bunday hisslarni paydo bo'lishga bevosita bog'liq inson hisoblanadi. Tabiyachi tevarak-atrofdagi tabiatni kuzatish uchun bog'cha maydonchasi va bog'chadan uzoq bo'lmagan joylarga sayrlar tashkil qilishi tabiatga bo'lgan mehrni paydo qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga atrof-muhitni asrab-avaylash, g'amxo'rlik qilishda ta'lim va tarbiya berishning mazmuni.

Yosh avlodni har tomonlama barkomol etib tarbiyalash, ona yurtni sevis-hga moddiy va ma'naviy boyliklarini asrab avaylashga atrof muhitni, tozaligini ta'minlashga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois maktabgacha yoshdan boshlab bolalarga ekologik tarbiya berishning pedogogik imkoniyatlarini aniqlash zamonaviy shakl va usullarni topishni, tarbiya



vositalarini aniqlash talab etilgan maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim tarbiya berishda xalq og'izaki ijodi janrlaridan keng foydalaniladi, chunki xalq og'izaki ijodi janrlaridan sodda tildaligini ta'sirchanligini tushunish bilan bolalarning zehni charxlashga aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga dunyo qarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarida ekologik tarbiyani takomillashtirish muammosi kun tartibidagi dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Tabiatshunoslik faoliyatlarida ekologik tarbiyani takomillashtirish pedagogik zaruriyat hisoblanadi.

Bu sohada ko'plab olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar. Jumladan, F.R.Qodirova, E.O.Turdiqulov, Y.G'.Mahmudov, B.Ziyomammedov, Sh.Avezov, R.U.Beknazov, N.M.Ahmedova, N.J.Isaqulova, Y.Karimov, S.X.Fayzulina, I.X.Ayubova, N.Ashurova, B.Kulturayev, P.U.Berdanova, M.M.Ibodullayeva, G.O.Komilova, S.Mamashokirov, M.Nishonboyeva, N.O'.Nishonova, A.A.Xasanov, M.B.Rahimqulova, M.Rahmatullayeva, Sh.Avezov, A.Bahramov, N.Bozorova, P.Berdanova, A.Ismoilov, I.Ismatov, R.Ishmuhammedov, Yu.Mahmudov, R.Mavlonov, N.Nishonova, M.Rahimqulova, M.Rahmatullayeva, X.Raxmatova, N.Sayidaxmedov va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

Tahlil va natijalar. Hozirgi davr o'sib kelayotgan yosh avlod ongida atrof-muhitga nisbatan ongli munosabatda bo'lish hissini shakllantirish va rivojlantirishni taqozo etmoqda. Atrof-muhitning kelgusida gullab-yashnashi yoki ekologik muammolarning globallashib borishi yosh avlodning atrof-muhitga nisbatan munosabatiga bevosita va bilvosita bog'liqligini yosh avlod ongiga singdirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bugun o'tmishda atrof-muhitni ifloslantirishning oldini olish, atrof-muhitni asrab-avaylash, g'amxo'rlik qilish tushunchalarini yosh avlod ongida shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiat boyliklaridan unumli foydalanish, ularni muhofaza qilish masalalarini ongli ravishda hal etish uchun oila, maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlab bolalarda tabiat ne'matlariga mehr-muhabbat ruhini shakllantirish, ekologiyaga oid bilimlarni ular ongiga singdirish yosh avlodni kelajakda atrof-muhitni muhofaza qila oladigan va atrof-muhitdan unga zarar keltirmagan holda foydalana oladigan bo'lib voyaga yetkazishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Bolalarda atrof-muhit haqida tasavvurlar, jonli tabiatga insoniy munosabatda bo'lishni shakllantirishga yordam berishda tabiat bilan muloqotda bo'lish



muhim. Bolalarni atrof-muhit bilan tanishtirish, uni tabiatni tushunishga o'rgatish, atrof-muhitni muhofaza qilishga o'rgatishni tarbiyalash maktabgacha ta'lim tashkilotlarining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bolalar tabiat haqida juda bo'lmaganda ilk bilimlarni egallab, o'simliklarni o'stirish, hayvonlarni parvarish qilishning oddiy usullarini o'rganib, tabiatni kuzatish, uning go'zalliklarini ko'ra olishni bilib olgan taqdiridagina ularda tabiatga nisbatan ehtiyotkorlik va g'amxo'rona munosabatda bo'lishni tarbiyalash imkoniyati tug'iladi. Bolalarda tabiat, jonajon o'lka, ona Vatanga muhabbat xuddi mana shu asnoda shakllanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik tarbiyasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, xuddi mana shu yoshda bolada ma'naviy madaniyatning bir qismi hisoblangan shaxsiy ekologik madaniyatning poydevorlari shakllanadi.

Bolalarning ekologik tarbiyasi – maqsad sari yo'naltirilgan pedagogik jarayondir. Bolalarni ekologik tarbiyalash, atrof-muhitni asrab-avaylash, g'amxo'rlik qilish munosabatlariga ijobiy yondashish, tabiat bilan bog'liq bo'lgan ishlarni bajarishda tabiatni muhofaza qilishga yo'naltirilgan intizom ekologik ongning yuzaga kelishi bilan tavsiflanadi. Bolalarning atrof-muhitni muhofaza qilishini shakllantirishda ekologik tarbiyaning mahsuli hisoblanadi. Maktabgacha yoshda bolaning atrof-muhitni muhofaza qilish tarkibiy qismi – atrof-muhitni bilish bo'yicha bilim va uning ekologiya nuqtai nazaridan yo'naltirilganligini kundalik turmush va faoliyatlarda foydalanish tashkil qiladi. Atrof-muhitni asrab-avaylash aqliy, estetik munosabatlar bola tomonidan o'zlashtirilayotgan bilimlarning mazmuni bilan yaqindan bog'liqdir. Atrof-muhitni muhofaza qilish mazmuni bilan bog'liq bo'lgan bilim tabiatda bolalar faoliyati va ularning o'zlarini tutishi xulq-atvorini nazorat qiladi va maqsad sari yo'naltiradi. Atrof-muhitga nisbatan bo'lgan munosabatni rivojlantirish (faoliyatlar jarayonida, sayohatlar, sayrlar uyushtirish kabi hayotiy vaziyatlar) bolaning ma'naviy-ijobiy, ruhiy kechinmalariga asoslangan pedagogik jarayonni tashkil qilish bilan o'zaro bog'liq. Tarbiyachi bolada tirik jonzotga nisbatan achinish, uni asrab-avaylash, jonli tabiat bilan uchrashganda undan bahra olish, quvonish, ta'jjublanish, o'zining qilgan ishidan mag'rurlanish, qoniqish hissini uyg'ota bilishi kerak.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni atrof-muhit, yilning turli fasllarida unda ro'y berib turadigan o'zgarishlar bilan tanishtirib boriladi. Hosil qilingan bilimlar asosida atrof-muhit hodisalarini aniq tushuna bilish, qiziquvchan bo'lish, kuzata bilish, mantiqan fikr yurita olish, jamiki tirik narsaga zavq-shavq bilan qarash kabi fazilatlar shakllanib boradi. Atrof-muhitga mehr qo'yish, uni ehtiyot qilib e'zozlash, tirik jonivorlar to'g'risida



g'amxo'rlik qilish atrof-muhitga qiziqish uyg'otibgina qolmay, balki bolalarda vatanparvarlik, mehnatsevarlik, tabiat boyliklarini ardoqlab va kattalarning mehnatiga hurmat bilan qarash kabi eng yaxshi xususiyatlarni shakllantirib borishga ham yo'l ochadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotining xona o'simliklari va ba'zi hayvonlar parvarishlab boqiladigan tabiat burchagi bolalarni atrof-muhit bilan tanishtirish, unga mehr-muhabbat uyg'otishga yordam beradi. Ilk yoshdagi bolalar bilan ishlashda esa bizning asosiy vazifamiz: tevarak-atrof, tabiat haqidagi birlamchi tasavvurlarni singdirish, o'simlik, hayvonlar ham jonli ekanligi, ularning nafas olishi, suv ichishi, ovqatlanishi, insonlar kabi og'riqni his etishi haqida tushunchalar beriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiat olamini o'rganish uchun guruhlarda ekotizimni o'rganish bo'yicha markazlar yaratish, ya'ni har bir guruh tabiat burchagida jonzotlar, dorivor va madaniy o'simliklar, idishlarda suv, qum, toshlar bo'lishi kerak. Bolalar ularning xususiyatlarini o'yin faoliyati yordamida o'rganib boradilar, o'zlarining ijodiy sifatlarini namoyon qiladilar, xayoliy va sensor qobiliyatlarini hamda mayda motorikani rivojlantiradilar. Ekotizimni o'rganish markazlarida kichkintoylar turli tajribalar o'tkazadilar: idishlarga suv quyadilar, uni tindiradilar, qanday narsalar suvda cho'kishi va cho'kmasligini bilib oladilar, qumdan nimalar yasash mumkinligini ko'radilar va tushunadilar. Tajriba va kuzatish ishlarini takrorlab, ular takomillashtirib boriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida atrof-muhitni muhofaza qilish insonlar bilan atrof-muhit o'rtasida uzviylik, insonlarga bo'lgan ta'siri to'g'risida tushunchalar berib, mashg'ulot o'tish vaqtida bolalar atrof-muhitni asrash, g'amxo'rlik qilish haqida bilishi kerak bo'lgan tushunchalar singdirib borilishi lozim. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha quyidagi tushunchalarni berish maqsadga muvofiqdir:

- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar tevarak-atrofdan o'zlarini qanday tutishlari, qoidalarga amal qilib tabiat haqidagi bilimlarini rivojlantirish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish tushunchalarini hayotiy faoliyatlarida qo'llay olish;
- bolalarning atrof-muhit muhofazasi bo'yicha qilgan ishlarini to'plab borish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari bu masalalarni hal qilishga muayyan rejalar orqali amalga oshirishadi:

- tarbiyachilar bolalarga atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha ta'lim-tarbiya berishda tayyor bo'lishlari shart;

- болаларга атоф-муhitни аsраш, г‘амхо‘рлик қилшга о‘ргатш бо‘уича аниқ yo‘налшлрга ега бо‘лшлари керак;
- болаларнинг атоф-муhitни аsрашга о‘ргатш учун турли вазиятларни мунтазам ташкил етиш зарур;
- ота-оналарни болаларни атоф-муhitни аsраб-авайлаш, г‘амхо‘рлик қилшга о‘ргатш жарайонларида фаол иштирок етишга жалб етиш керак.

Мақтабгача та‘лим ташкилотларида атоф-муhitни муhofаза қилшга о‘ргатш бо‘уича quyidagi faoliyatlarnii amalga oshirish kerak bo‘ladi: kuzatish ishlari, атоф-муhitни аsрашни о‘ргатшга oid mashg‘ulotlar o‘tish, атоф-муhitни аsраш, г‘амхо‘рлик қилш бо‘уича tajribalar o‘tkazish. Tabiatdagi mehnat болаларда tirik mavjudotlarga rahm-shafqatli bo‘lish hissini tarbiyalaydi. Bu o‘z navbatida ularning ruhan sog‘lom bo‘lishlarini ta‘minlaydi. Bolalar атоф-муhitda qilgan mehnatlari natijalaridan xursand bo‘ladilar, атоф-муhitga nisbatan do‘stona munosabatlarini namoyon etadilar. Мақтабгача та‘лим ташкилотларида tarbiyalanayotgan болалар турли jonzotlar, o‘simliklarni parvarishlaganlaridan so‘ng, ularning kayfiyatlari ko‘tarilib, ma‘naviy ozuqa oladilar. Атоф-муhit haqida болаларга kitob o‘qib berish orqali атоф-муhit haqidagi bilim, ko‘nikma va malakalar oshirib boriladi. Ekologik ta‘lim-tarbiya maқтабгача yoshdagi болаларning ekologik madaniyatli bo‘lib voyaga yetishida muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan:

- болаларning o‘zi yashab turgan shahar, qishloq, mahalla, xonadoniga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘usi, vatanparvarlik ruhini shakllantiradi;
- болалар ona tabiatni sevish, ardoqlash, undan g‘ururlanish ruhida tarbiyalanadi;
- болаларда ichimlik suvni isrof qilmaslik va uni ifloslantirmaslik bo‘uичa tushunchalarni shakllantiradi;
- болаларда kuzatuvchanlik, tabiat go‘zalligi, uni muhofаza qilishga bo‘lgan qiziqishlar rivojlanadi;
- болалар атоф-муhitdagi barcha tirik mavjudotlar, o‘simliklar dunyosi tabiatning bir qismi, inson u bilan bog‘liq ekanligi, атоф-муhitни аsраб-авайлаш zarurligini tushunib yetadilar.

Мақтабгача yoshdagi болалар ekologik tarbiyasidan ko‘zlangan maqsadlardan biri - bir to‘mondan - muqaddas Ona zaminimizni ozoda qilib saqlash bo‘lsa, ikkinchi to‘ondan - musaffo osmonimizni aslidagi- dek saqlashdan iborat. Bu ona diyorimizni obod етишга qo‘shiladigan katta hissa bo‘lib, maқтабгача yoshdagi болаларда obodonchilik, tozalik, mehnatsevarlik, tejamkorlik, muloqatmandlik, odoblilik kabi insoniy fazilatlar shakllanadi.



Maktabgacha yoshdagi bolalarda quyidagi atrof-muhitni muhofaza qilish tushunchalarini ongli ravishda anglashni kafolatlaydi:

- atrof-muhit haqidagi tushuncha, tabiiy omillar va ularning bog‘liqligi;
- tabiat boyliklaridan unumli, tejamkorona foydalanish va ularni asrash;
- atrof-muhitni ifloslanishdan saqlash;
- tabiatni, atrof-muhitni kelajak avlodga qanday bo‘lsa, o‘shandayligicha qoldirishga intilish va shu kabilar. Uzoq tarixga nazar tashlaydigan bo‘sak, Markaziy Osiyo xalqlari.

Jumladan, o‘zbeklar ham jahondagi eng qadimiy xalqlardan hisoblanadi va ular jahon ilm-faniga, ma‘naviy-ma‘rifiy taraqqiyotiga katta hissa qo‘shganligining guvohi bo‘lamiz. Ota-bobolarimizning bu boradagi qoldirgan boy ma‘naviy myerosi milliy myerosimizni chuqur, har tara-flama o‘rganishimizga va u haqda xolisona fikr bildirishga hamda O‘zbekiston mustaqilligiga yerishuvida buyuk ma‘naviy ozuqa bo‘ldi yoki ota-bobolarimiz qoldirgan milliy qadriyatlarimizni ti-klash va ularni targ‘ib qilishga keng imkoniyatlar yaratildi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so‘ng, ekologik tarbiyada xalq pedagogikasidan foydalanishga katta e‘tibor berib kelinmoqda. Atrof-muhitni asrash, moddiy boyliklardan unumli, tejamkorona foydalanishga oid bilimlarni milliy qadriyatlar va urf-odatlar, an‘analar orqali singdirish ehtiyoji tug‘iladi.

Tarbiyachining bolalarga atrof-muhitni asrab-avaylash, uning ne‘matlaridan oqilona foydalanishga o‘rgatishda xalqimizning o‘ziga xos qadriyatlaridan o‘z o‘rnida foydalanishi ijobiy samaraga erishiladi. Milliy Yer, suv, tuproq, havo milliy tarbiyamizda muqaddas hisoblangan. Xalqimizning azaldan suvga e‘tiqod baland bo‘lib, «Suv sayli» yozning eng jazirama kunlarida o‘tkazish an‘anaga aylangan. «Suv - tabiat in‘omi, hayot manbayi» deb ota-bobolarimiz bejiz ay-tishmagan. Suvni qadrlab, bog‘-rog‘lar yaratishgan. Hozirgi vaqtda suvni tejasmasdan foydalanish oqibatida Orol muammosining tug‘ilishiga sababchi bo‘ldik.

Shu bois maktabgacha yoshdagi bolalarga atrof-muhitni asrab-avaylash, uning ne‘matlaridan oqilona foydalanish bo‘yicha ta‘lim-tarbiya berishda milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an‘analar did-aktik asos bo‘lib, ular orqali bolalarni atrof-muhitni asrab-avaylashga, g‘amxo‘rlik qilishga, tozalikka va eng asosiysi sog‘lo‘m turmushni tashkil qilishga o‘rgatiladi.

Jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan taraqqiyoti darajasi undagi xalq xo‘jaligining turli jabhalariga ta‘sir etadi. Bu borada o‘ziga xos global va mintaqaviy ekologik muammolar ham yuzaga kelavyeradi. Bunda global muammolarga Orol fojiasi, Chyernobil halokati, Xirosima va Nagasaki shaharlardagi bomba portlashlar hamda shu kabilar misol bo‘la olsa, zavod va



fabrikalardan chiqadigan zararli chiqindilar yoki ma'lum hududdagi tuproq erroziyasi, ba'zi kasalliklarning ko'payishi va shu kabilarni misol qilib olish mumkin.

Shu sababli ekologik tarbiya yo'nalishlari ham turli xil bo'ldi. Quyida ularning ba'zilar to'g'risidagi ma'lumotlar keltiramiz:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni yashab turgan joyidagi tabiatimiz boyliklarini tejab-tyergashga, uni muhofaza qilishga o'rgatish.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'z o'quv tashkilotlarini va uning tevarak-atroflarini ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish, mevali va manzarali daraxtlar ekishga o'rgatish.

3. Maktabgacha yoshdagi bolalarda xiyobonlarni, suv havzalarini ozoda saqlash ko'nikmalarini shakllantirish.

4. Ekologik dunyoqarashni yuksaltirish.

5. Ekologik madaniyatni shakllantirish.

6. Ekologik savodxonlikni yuksaltirish.

7. Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida atrof-muhitni asrab-avaylash o'rgatish va uning bolalarga ta'siri haqidagi tasavvurlarni shakllantirish.

8. Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida atrof-muhitni muhofaza qilish va uning mamlakat rivojidadagi o'rni haqidagi tasavvurlarni paydo qilish.

9. Maktabgacha yoshdagi bolalarga atrof-muhitni asrash, g'amxo'rlik qilishga o'rgatishda oila o'rtasidagi bog'liqlik.

10. Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida atrof-muhit muhofazasida bolalarning vazifasi haqida tasavvur hosil qilish.

11. Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida atrof-muhitni muhofaza qilishda otaona ibrat-namunasi haqidagi tasavvurlarni hosil qilish.

12. Maktabgacha yoshdagi bolalarni oiladagi maktabgacha ta'lim tashkilotidagi o'simliklarni asrash, e'zozlashga o'rgatish, hayvonlar va qushlarga ozor bermaslikka oid bilim va ko'nikmani takomillashtirish.

13. Maktabgacha yoshdagi bolalarga atrof-muhitni asrashga o'rgatishda milliy qadriyatlarimiz, an'analarni tiklashga e'tibor qaratish.

14. Maktabgacha yoshdagi bolalarga atrof-muhitni asrashga o'rgatishda turli to'garaklardan foydalanish va ularda "Suvdan unumli foydalanish", "Atrof-muhitni ifloslantirmaslik", "Tabiatni e'zozlaylik" va shu kabi mavzularda davra suhbatlari tashkil qilish.

SHu bois asrlar mobaynida shakllangan, avloddan-avlodga bebaho meros sifatida o'tib kelayotgan milliy urf-odat va an'analirimiz atrof-muhitni asrashga oid tushunchalar shakllanishida muhim omil bo'ladi. O'tmishni bilmasdan, hozirgi holatdan xabardor bo'lmasdan, kelajak haqida o'ylash mumkin



emas. Yangilanayotgan O‘zbekistonning asosiy xususiyatlaridan biri – bu tarbiya tizimining umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida qayta qurilishi. Ajdodlarimiz qoldirgan ekologik mazmundagi madaniy merosda barcha davrlar uchun kerak bo‘ladigan ajoyib g‘oyalar, fikrlar borki, ular bugungi taraqqiyot uchun o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Xulosa. Maktabgacha ta‘lim tashkilotida bolalarga atrof-muhitni asrab avaylash va g‘amho‘rlik qilishini tabiatga nisbatan mehr muxabbatni uyg‘otish tarbiyachi pedagoglarning yordami qolaversa ota-onalarning roli muhimdir. Maktabgacha ta‘lim tashkiloti bolalari bilan ishlaydigan tarbiyachi ota-onalariga bolaning ijodiy salohiyatini rivojlantirishning muhimligini tushuntirishlari kerak. Bunga turli ko‘rgazmalar, ekskursiyalar, yodgorliklar va diqqatga sazovor joylarni birgalikda ko‘rib chiqishga qo‘shma sayohatlar yordam beradi. Bola uchun har xil ijodiy doirani ziyorat qilish juda muhim, masalan: rasm; haykaltaroshlik; qo‘shiq aytish. Bolalarni ijodiy jarayonda jalb qilish turli innovatsion usullar mavjud.

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni.2020-yil 23 sentabr O‘RQ-637son.
2. Vinogradova N.A., Miklyaeva N.V. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida o‘quv jarayonini sifatini boshqarish. - M.: Iris-didaktik, 2007.-192 b.
3. “Maktabgacha ta‘lim tizimini boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30- sentyabrdagi PF-5198 sonli Farmoni.
4. Versxinina N.B., Suxanova T.I. Bolalar bog‘chasida tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishga zamonaviy yondashuvlar. Ma‘lumotnoma va uslubiy materiallar. - «O‘qituvchi» nashriyoti, 2010 - 111 b.
5. Toshova Shaxnoza T. -“Maktabgacha yoshdagi bolalarga atrof-muhitni asrab avaylash, g‘amxo‘rlik qilish ko‘nikmalarini shakllantirish orqali sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish”-Interpretation and research-2023
6. Toshova Shaxnoza T.-“Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik dunyoqarashni shakllantirish”-Analysis of world scientific views International Scientific Journal 1 (6), 56-61 2023.
7. Toshova Shaxnoza T.- “Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish mazmuni”-Analysis of world scientific views International Scientific”-2023
8. Toshova Shaxnoza T. -“Oilaning maktabgacha ta‘lim muasasasi bilan olib boriladigan faoliyatining hamkorligini tashkil etishi”-Golden Brain -2023
9. Toshova Shaxnoza T.-“Maktabgacha ta‘limda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratish”- International conference on learning and teaching 1 (6), 258-262-2022
10. Djumayeva Dildora I.-“Ecological education of primary school students is a problem and some approaches to solution” – Ta‘lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali b-194-198-2023
11. Djumayeva Dildora I-“Pedagogical methods of formation of creative thinkg of primary school students in educational leassons”-Glaxy International Interdisciplinary Research Journal b-324-327-2022

#### PEZIOME

Mazkur maqolada yosh avlodni har tomonlama barkomol etib tarbiyalash, ona yurtini sevishga moddiy va ma‘naviy boyliklarini asrab avaylashga atrof muhitni, tozaligini ta‘minlashga o‘rgatish va



maktabgacha yoshdan boshlab bolalarga ekologik tarbiya berishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash zamonaviy shakl va usullarni topish, tarbiya vositalarini aniqlash hamda maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim tarbiya berishda xalq og'izaki ijodi janrlaridan keng foydalanish zaruriyatlari shuningdek xalq og'izaki ijodi janrlaridan sodda tildaligini ta'sirchanligini tushunish bilan bolalarning zehni chaxrlashga aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga dunyo qarashini kengaytirishga xizmat qilishi tog'risida ma'lumotlar ketirib o'tilgan.

#### РЕЗЮМЕ

В этой статье воспитать молодое поколение совершенным во всех отношениях, научить его любить Родину, беречь свои материальные и духовные богатства, беречь окружающую среду и чистоту, а также определить педагогические возможности экологического воспитания. для детей с дошкольного возраста найти современные формы и методы, выявить средства обучения и необходимость широкого использования фольклорных жанров в воспитании дошкольников, а также понять эффективность простого языка фольклорных жанров, Для обострения ума детей, развития их умственных способностей, расширения их мировоззрения передана информация.

#### SUMMARY

In this article, to educate the young generation to be perfect in all aspects, to teach them to love the motherland, to protect their material and spiritual wealth, to protect the environment and cleanliness, and to determine the pedagogical possibilities of environmental education for children from pre-school age, to find modern forms and methods, to identify the means of education and the necessity of wide use of folklore genres in the education of preschool children, as well as to understand the effectiveness of the simple language of folklore genres, to sharpen the minds of children, to develop their mental abilities, to expand their worldview the information has been passed.